

# Ijtomoiy pedagogikada meyordan cheklangan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakillari, metodlari va vositalari

Omina Abdug'aniyeva  
Zamira Abdumatalova  
Ilmiy rahbar: S.Xaydarov  
TMC instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan me'yordan cheklangan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakllari va medotlar to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy pedagogika, me'yordan cheklangan, bola, ota-onas, jamiyat, maktab

## Forms, methods and means of working with adolescents with disabilities in social pedagogy

Amina Abduganiyeva  
Zamira Abdumatalova  
Scientific supervisor: S.Khaidarov  
TMC Institute

**Abstract:** This article will talk about the forms of work and medotes carried out with adolescents limited by the norm, which are one of the relevant topics today.

**Keywords:** social pedagogy, limited by norm, child, parent, society, school

Biror bir muammoni gapirish yoki jamoatchilikka ko'tarib chiqib muhokama qilish oson meni nazdimda. Ammo bu muammoga yechim topib, uni xayrli yo'lda jamoatchilik uchun foyda keltirgan holda hal qilish biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin aslida. Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatadi. Uning hatti-harakati, o'z kuchiga, mayliga yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o'z o'rmini topishga intilishi o'zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O'smirlarda o'zini anglash yangi bosqichga ko'tarilgach, ular o'ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O'quvchi o'ziga namuna bo'lган shaxsning xulq-atvori bilan o'zining hatti-harakatini solishtiradi va o'zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi.

Inson xulq-atvori, psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala insoniyatni qadim zamonlardan buyon qiziqtirib kelgan. Tarbiya buzilishi va xulq ogishining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar

Ijtimoiy omillar: erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalardan qochish; qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik; o'z(men)iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik; moddiy kam ta'minlanganlikni his qilish, ota-onu xulq-atvordan uyalish;

Oilaviy omillar: ota-onu, o'qituvchi, kattalar va bolalar o'rtasida muloqotdagi muammolar; bolalar ga kattalar tomonidan diqqate'tiborning yetishmasligi; otaonalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro tushunishning yo'ligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi; otaonalarning o'gil va qiz bolalarga nisbatan qo'pol muomalada bo'lishlari;

Shaxsiy omillar: tengdoshlar, o'rtoqlar, sinfdoshlari, o'z-o'zini tushunmaslik va o'ziga salbiy munosabat; hayotiy yo'naliishlardagi orzu va havaslar; ichki ruhiy yolgizlik, o'zgalarning tushunmasigi;baxtsizlikdan qiyinalish, shaxsiy qiyinchiliklar; shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan havotirga tushish, irodasizlik;

Fiziologik omillar: agressivlik, jahldorlik, asabiylashish va ruhiy zo'riqish; bolaning ko'p kasal bo'lishi; qo'zgal uvchanlikning kuchayishi; o'zini-o'zi boshqara olmaslik; o'zlashtirishda aqlan qolib ketish; o'quvchining aqlan zaiflashishi; psixofiziologik va jinsiy tomonidan bir xilda rivojlanmaganlik; tugma xususiyatlar; tugma nuqsonlar;

O'quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o'ziga xos tomonlar, ular o'rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta'lim maqtablari amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya'ni psixotrening va psixokorreksion ishlar olib boriladi. Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko'p holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishslash nazoratchilari ro'yhatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimlik ichishga, bezoriliq va o'g'rilikka moyil o'quvchilar nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta'sirlarga qarshiliq ko'rsatadi, ularning xulqida o'zini biz xohlagandek tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Maktab rahbarlarining ushbu muamumo bo'yicha maxsus pedagogik tizim - o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig'indisidan iborat bo'gan dasturlarida har bir sinf o'quvchilarining oilalari to'grisida tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lishlari masalani hal qilishga qo'lyilgan dastlabki qadam bo'ladi.

O'quvchilaming ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai-nazaridan bola tarbiyasiga muhtoj oilalarni aniqlab olish mumkin. Bola tarbiyasida ota-onaning roli va mas'uliyatini talab qilishdan oldin muhtoj otaonalar uchun maxsus tavsiyalarni ishlab chiqish, seminarlar, trening hamda konsultatsiyalar uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Bu masalada sinf rahbarlarining ota-onalarga beradigan yordamlari doimiy va malakali boiishi talab

etiladi. Xulqi og'ishgan (deviant) bolalar bilan ishlash tajribasi ota-onalar, pedagoglar o'rtasida keng targ'ib etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, xulq og'ishining kelib chiqishida shaxsning individualpsixologik xususiyatlarining o'rni kattadir. Shu boisdan ijtimoiy psixologiyada ushbu muammo bilan jiddiy shug'ullanish va xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsini korreksiya qilish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shaxsning keng qamrovli munosabatlar, ijtimoiy amaliyot va tarbiya jarayoni ishtirokida komol topishini hisobga oladigan bo'lsak, xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smir shaxsi muammosi yuzasidan yanada kengroq ilmiy ishlarni olib borish zaruriyati kelib chiqadi. Chunki, har bir shaxs oila, mакtab, mahalla ta'siri natijasida shakllanadi va kamol topadi. Ularni sog'lomlashtirish, tarbiyaviy ta'sir samaradorligini oshirish esa yoshlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsi muammosini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bugungi kunda bu sohada bir qator muammolar ko'zga tashlanadi. Ana shunday muammolardan biri xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsini o'rganish bo'yicha tadqiqot metod va metodikalarining yetishmasligi va borlarining ham respublikamiz milliy muhitiga moslashtirilmaganligi bo'lsa, ikkinchidan xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsini korreksiya qilish va ular shaxsi deformatsiyalashuvining oldini olish borasidagi ishlarning talab darajasida emaslidigidir. Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsida olib boriladigan psixokorreksion ishlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatga egadir. Biroq, ilmiy manbalar va amaliyotda xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsining o'ziga xos individualpsixologik xususiyatlari, ular shaxsidagi ijtimoiylashuvning izdan chiqishi, shaxs "men" idagi o'zgarishlar va boshqalar to'g'risida aytarlik ma'lumotlar uchramaydi. Bu o'z navbatida xulq og'ishiga ega bo'lgan o'smir va o'spirinlar shaxsida psixokorreksion ishlarni olib borish ishlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xoliqova, Y., Gayirova, D., & Xaydarov, S. (2024). Ijtimoiy pedagogikada meyordan og'ishgan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakillari metodlari va vositalari. Science and Education, 5(2), 493-496.
2. Otamurodova, G., & Xaydarov, S. (2024). Me'yordan og'ishgan o'smirlar bilan olib boriladigan ish shakillari. Science and Education, 5(2), 497-500.
3. G.Shoumarov, B.Umarov, F.Akromova. Yoshlarda xulq ogishi va tarbiya buzilishining oldini olish bo'yicha psixologik maslahatlar. Uslubiy qo'llanma. T-20152.
4. N.G.Komilova. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.-2007

5. Ta'lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostika vositalaridan foydalanish (Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va tashxis markazlari psixologilari uchun uslubiy qo'llanma) /Tuzuvchi psixol. fan. nomz., dos. N.A.Sog'inov. - Toshkent - 2001. - 40 b.
6. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, "Fan" nashriyoti – 2008, 314 bet.
7. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
8. Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).
9. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67. <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652>
10. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
11. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).